

Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-mart oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 984,9 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida, xususan, Mirzaobod tumani (244,6 mlrd so'm), Guliston shahri (179,9 mlrd so'm) va Sirdaryo tumanida (70,8 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati *	984,9	104,9
Guliston sh.	179,9	87,3
Shirin sh.	29,6	101,9
Yangiyer sh.	44,6	109,8
Boyovut	20,3	85,6
Guliston	42,7	102,0
Mirzaobod	244,6	130,0
Oqoltin	17,0	102,4
Sardoba	44,8	126,8
Sayxunobod	35,4	101,4
Sirdaryo	70,8	103,3
Xovos	33,2	101,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 77,4 % yoki 762,4 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **173,4** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 22,7 %;*

Kichik korxona va mikrofirmalar – **458,8** mlrd so'm *hamda ulushi – 60,2 %;*

Norasmiy sektor – **130,2** mlrd so'm *hamda ulushi – 17,1 %.*

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi



2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Mirzaobod tumani (192,4 mlrd so'm), Guliston shahri (123,5 mlrd so'm), Sirdaryo tumani (57,9 mlrd so'm) va Yangiyer shahrida (36,3 mlrd so'm) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Yangi qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 66,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 27,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 83,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 169,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 10,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,4 % punktga ko'payib 64,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,0 % punktga kamayib, 24,8 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Guliston tumani (80,6 %), Sayxunobod tumani (80,5 %) va Yangiyer shahrida (75,3 %) kuzatildi.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 36,6 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,4 % punktga kamayib 63,4 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (48,1 %), Shirin shahri (36,1 %) va Oqoltin tumanida (28,8 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi va 6,7 % ni tashkil etdi.

Qolgan 93,3 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ko'paydi.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Boyovut tumanida (11,8 %), Oqoltin tumanida (11,8 %) va Yangiyer shahrida (9,6 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 173,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 134,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,8 % ga ko'payib, 17,6 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,9 % to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etgan holda 648,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 16,5 % ni yoki 162,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 78,6 % ni tashkil etdi. Shundan 127,4 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 72,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 2,8 mlrd so'mni va 3,7 m.ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 32,7 mlrd so'mni va 109,2 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati *	173,4	648,6	162,9	134,6	107,2	78,6
Guliston sh.	7,1	150,3	22,5	148,3	92,6	56,8
Shirin sh.	15,2	13,6	0,8	101,2	113,6	39,8
Yangiyer sh.	-	42,0	2,6	-	114,2	67,3
Boyovut	1,5	14,3	4,5	111,0	100,3	54,5
Guliston	23,3	16,6	2,8	14,0 m.	46,9	57,0
Mirzaobod	43,6	199,4	1,6	99,0	144,7	25,1
Oqoltin	1,9	14,1	1,0	102,0	126,8	27,4
Sardoba	26,3	16,0	2,5	110,7	2,1 m.	57,2
Sayxunobod	1,5	30,9	3,0	97,6	107,9	62,2
Sirdaryo	12,7	30,6	27,5	111,0	65,0	2,9 m.
Xovos	5,8	23,2	4,2	148,3	99,2	78,4

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 14,0 m.), Guliston shahrida (148,3 %) va Xovos tumanida (148,3 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sardoba tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,1 m.), Mirzaobod tumani (144,7 %) va Oqoltin tumanida (126,8 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 m.) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xazratqulov
67 236-70-00 (2020)

Manzil:

